



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 256 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisoy faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna	



“O‘ZTEMIRYO‘LYO‘LOVCHI” AJNING ASISY FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AUTSORSING XIZMATINI JORIY ETISH STRATEGIK ASOSLARI

Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna

Toshkent davlat transport
universiteti tayanch doktranti

Email: nilufarkaharova8731@gmail.com

Annotatsiya: Outsorsing yo‘lovchi tashish sohasida korxona resurslarini optimallashtirish, xizmat ko‘rsatish sifati va ishonchliligini oshirish, innovatsion salohiyatni kengaytirish hamda uzoq muddatli raqobatbardosh rivojlanishni ta‘minlashda zamonaviy va samarali boshqaruv mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv yordamida kompaniyalar yordamchi funksiyalarni tashqi ixtisoslashgan tashkilotlarga topshirib, o‘z resurslarini strategik ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki xizmat jarayonlarining barqarorligi va xavfsizligi ham ta‘minlanadi.

Kalit so‘zlar: outsorsing, yo‘lovchi tashish, blok-sxema, iqtisodiy xavf-xatarlar, strategik ustuvorlik, xizmat sifati, ishonchlilik, innovatsion salohiyat, narx-sifat nisbatining maqbulligi, shartnoma bo‘yicha intizomiylik.

Abstract: Outsourcing in the passenger transportation sector is considered a modern and effective management mechanism for optimizing corporate resources, improving service quality and reliability, expanding innovative capacity, and ensuring sustainable long-term competitive growth. Through outsourcing, companies can transfer auxiliary functions to external specialized organizations and focus their internal resources on strategic priorities. This approach not only increases economic efficiency but also guarantees the stability and security of service processes, which are crucial in today’s competitive environment.

Key words: outsourcing, passenger transportation, block-scheme, economic risks, strategic priorities, service quality, reliability, innovation potential, cost–benefit ratio, contractual discipline, resource optimization, sustainable development, competitiveness.

Аннотация: Аутсорсинг в сфере пассажирских перевозок рассматривается как современный и эффективный механизм управления, направленный на оптимизацию ресурсов предприятия, повышение качества и надежности услуг, расширение инновационного потенциала, а также обеспечение долгосрочного конкурентного развития. Данный подход позволяет компаниям передавать вспомогательные функции внешним специализированным организациям и сосредоточить внутренние ресурсы на стратегических приоритетах. В результате обеспечивается не только экономическая эффективность, но и стабильность, а также безопасность производственных и сервисных процессов.

Ключевые слова: аутсорсинг, пассажирские перевозки, блок-схема, экономические риски, стратегические приоритеты, качество услуг, надежность, инновационный потенциал, соотношение цена–качество, договорная дисциплина, оптимизация ресурсов, устойчивое развитие, конкурентоспособность.

KIRISH

Strategik nuqtayi nazardan qaralganda, outsorsing xizmatlaridan foydalanish zamonaviy biznes amaliyotida korxona resurslarini samarali boshqarishning eng muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Chunki outsorsing kompaniyaga mavjud resurslarning muayyan qismini yordamchi yo‘nalishlarni rivojlantirishga emas, balki to‘liq ravishda asosiy tijorat faoliyatiga yo‘naltirish imkonini beradi. Natijada, korxona o‘zining asosiy strategik ustuvorliklariga e‘tibor qaratib, raqobatbardoshligini oshirish hamda ichki boshqaruv mexanizmlarini soddalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mazkur jarayonning ahamiyati shundaki, outsorsing oddiy tashqi pudratchi bilan qisqa muddatli hamkorlikni emas, balki uzoq muddatli va tizimli sheriklik munosabatlarini shakllantirishni talab qiladi. U nafaqat moliyaviy




resurslarni tejashga, balki yuqori malakali mutaxassislar va ilg'or texnologiyalardan foydalanishga ham imkon yaratadi. Bu esa kompaniya faoliyatida innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Shuningdek, global biznes muhitida outsorsingning qo'llanilishi korxonalarning xalqaro bozorga chiqishi, yangi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi hamda xarajatlar tuzilmasini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar tajribasini umumlashtirish orqali outsorsing xizmatlarini amaliyotga tatbiq etishning asosiy bosqichlarini aniqlash zarurdir. Bu bosqichlar, o'z navbatida, outsorsingni strategik jihatdan asoslash, rejalashtirish va samarali joriy etishning nazariy-amaliy modelini shakllantirish imkonini beradi (1-rasmga qarang).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rasmdan ko'rinib turibdiki, taqdim etilgan algoritm to'rtta asosiy bo'limni o'z ichiga oladi. Outsorsing xizmatlarini amaliyotga joriy etishda, uni strategik jihatdan asoslash va joriy etish jarayonini puxta rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki outsorsing oddiy subpudrat munosabatlaridan farqli o'laroq, faqatgina sheriklik shakli emas, balki kompaniya ichki jarayonlari hamda tashqi munosabatlarini qayta tashkil etishni talab qiladigan kompleks boshqaruv strategiyasidir. [1,2,3]



1-rasm. Outsorsing xizmatlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonining algoritmi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aynan "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, unda outsorsing xizmatlarini joriy etish siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish boshqaruv jarayoni quyidagi talablarni o'z ichiga olishi lozim:

Sohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib asosiy strategik maqsadni belgilash;



Belgilangan strategik maqsadga muvofiq korxona faoliyatining qaysi yo'nalishlarini outsorsingga topshirish lozimligini aniqlash;

Tanlab olingan faoliyatni outsorsingga o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur samaradorligini har tomonlama baholash;

Dastur amalga oshirilganidan so'ng, uning natijaviyligi va strategik maqsadlarga yo'naltirilganligini monitoring qilish va baholash.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy mulohazalardan kelib chiqib, temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatiga outsorsing xizmatini joriy etish, bu jarayonni axborot bilan ta'minlash, shuningdek, outsorsing xizmatini amalga oshirishga doir loyiha ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun har bir bosqichda boshqaruvning mantiqan yakunlanishini ta'minlaydigan usullarni qo'llashga asoslangan texnologik yondashuv taklif etiladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Shu bois, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ faoliyati doirasida outsorsing xizmatlari loyihasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish jarayonida blok-sxema asosida ko'rsatilgan ketma-ket bosqichlarni izchil va tizimli tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir (2-rasmga qarang). Bu jarayon korxonada mavjud tashkiliy-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, boshqaruvning markazlashgan shaklini saqlagan holda, operatsion jarayonlarni optimallashtirish imkoniyatini yaratadi.

Muammolarni aniqlash bosqichi ushbu jarayonning boshlang'ich va eng muhim qadamlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda loyiha ustida ishlovchi maxsus ishchi guruh shakllantiriladi, uning tarkibi, vakolatlari, ish tartibi hamda bajarish muddatlari aniqlanib belgilab olinadi. Ishchi guruhni tashkil etishda malakali mutaxassislar, soha ekspertlari va tajribali menejerlarning jalb qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular muammolarni chuqur tahlil qilish va mavjud xavf-xatarlarni baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mazkur bosqich odatda kompaniya boshqaruvi raisining o'rinbosarlari rahbarligida amalga oshiriladi. Ular loyiha strategik yo'nalishlarini belgilash, tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish va qaror qabul qilish jarayonida asosiy yetakchi vazifani bajaradilar. Shu bilan birga, iqtisodiy boshqaruv bo'limlari bevosita ijrochi va mas'ul sub'yekt sifatida jarayonda faol ishtirok etadi. Ularning asosiy vazifalari – iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, muammolarni ustuvorlik darajasiga ko'ra saralash va outsorsing orqali hal etilishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini ajratib ko'rsatishdan iboratdir.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu bosqich nafaqat muammolarni aniqlash, balki korxona faoliyatining samaradorlik darajasini kompleks baholashga ham xizmat qiladi. Natijada, keyingi bosqichlarda ishlab chiqiladigan outsorsing loyihasining maqsadlari aniqlanib belgilanadi, qaror qabul qilish jarayonida sub'ektiv yondashuvlar emas, balki ilmiy asoslangan dalillar ustuvorlik kasb etadi.



2-rasm. Ayrim funksional faoliyat turini outsorsing asosida tashqi ijroga topshirish bo'yicha loyihani ishlab chiqish va uni amalga oshirishning blok-sxemasi.



Mazkur tadqiqot doirasida temir yo'l transporti sohasida outsorsing xizmatlarini joriy etish jarayonining konseptual modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang). Ushbu model amaliyotda qo'llanilganda, korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Blok-sxema asosida ketma-ket amalga oshiriladigan bosqichlarni ilmiy tahlil qilish quyidagi natijalarni ko'rsatdi.

1. Muammolarni aniqlash bosqichi

Birinci bosqichda temir yo'l transporti rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimli tahlil qilinadi. Bu jarayon ichki ishlab chiqarish muammolari, tashkiliy kamchiliklar hamda tashqi iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqadigan cheklovlarni aniqlash imkonini beradi. Natijada, mavjud muammolarning ustuvor darajasi belgilab olinadi va ularni hal qilishning strategik yo'nalishlari shakllantiriladi.

2. Ustuvor yo'nalishlarni belgilash

Tahlil jarayonida aniqlangan muammolarning ahamiyati darajasidan kelib chiqib, ularga nisbatan ustuvorlik darajalari belgilanadi. Shu asosda yordamchi faoliyat turlari outsorsingga o'tkazilishi ko'zda tutiladi. Ushbu yondashuv korxonaning asosiy faoliyatini moliyaviy va tashkiliy jihatdan yengillashtirishga xizmat qiladi.

3. Qaror qabul qilish va loyiha ishlab chiqish

Mazkur bosqichda outsorsing faoliyatini joriy etish bo'yicha kompleks loyiha ishlab chiqiladi. Qaror qabul qilish jarayonida ilmiy asoslangan tahliliy usullar – iqtisodiy samaradorlikni hisoblash, risklarni baholash hamda tashkiliy imkoniyatlarni aniqlash – qo'llaniladi. Bu esa sub'ektiv qarorlar emas, balki ob'ektiv dalillarga asoslangan loyihani yaratish imkonini beradi.

4. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholash

Ishlab chiqilgan loyiha moliyaviy, tashkiliy va amaliy mezonlar asosida baholanadi. Xususan, kutilayotgan natijalar – xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, mehnat unumdorligini ko'tarish kabi ko'rsatkichlar bilan o'lanadi. Bu bosqichda loyiha doirasidagi kuchli va zaif tomonlar aniq ko'rinadi.

5. Kamchiliklarni bartaraf etish

Baholash natijalarida aniqlangan kamchiliklar tuzatiladi va loyiha qayta ko'rib chiqiladi. Bu jarayon outsorsing loyihasining ishonchligini ta'minlash bilan birga, uni amaliyotga tatbiq etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni kamaytiradi.

6. Loyihani amaliyotga joriy etish

Takomillashtirilgan loyiha yakuniy shaklda qabul qilinadi va amaliyotga tatbiq etiladi. Bu bosqichda loyiha korxona boshqaruv tizimiga integratsiya qilinadi hamda mavjud jarayonlarga moslashtiriladi.

7. Strategik rivojlanish konsepsiyasiga integratsiya qilish

Outsorsing loyihasi "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga kiritiladi. Bu jarayon outsorsingni faqat qisqa muddatli iqtisodiy foyda vositasi sifatida emas, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida qarashga imkon beradi.

8. Monitoring va nazorat tizimi

Loyihani amalga oshirish jarayonida samaradorlik va natijaviylik ko'rsatkichlari muntazam monitoring qilinadi. Shu bilan birga, ichki nazorat va tahliliy kuzatuv mexanizmlari orqali loyiha doimiy ravishda baholanadi va takomillashtirib boriladi. Bu esa natijada loyihaning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, outsorsing xizmatlarini joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganda, u korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda kuchli strategik vosita bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, ushbu yondashuv "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning uzoq muddatli barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bevosita uyg'unlashadi va uning amaliy samaradorligini ta'minlaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid muammolar murakkab va ko'p qirrali bo'lgani sababli, konsultativ-maslahat guruhlariga nafaqat kompaniya xodimlari, balki tegishli ilmiy sohalar vakillari va mutaxassislarni ham jalb etish zarur. Ushbu ishchi guruhning vazifasi kompaniyaning hozirgi holatini baholash, o'z-o'zini rivojlantirish dasturini shakllantirish hamda mavjud muammolarning dolzarbligini aniqlashdan iboratdir.

Bunda quyidagi vazifalar muhim ahamiyatga ega:

kompaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari va strategik maqsadlariga moslikni aniqlash;

muammoni qisqa muddat ichida (bir moliyaviy yil davomida) hal etish imkoniyati mavjud emasligini asoslash; muammolarning strategik maqsadga muvofiqligini baholash.

Outsorsing xizmatlarini "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ faoliyatiga tatbiq etish, bir qarashda, yordamchi funksiyalarni optimallashtirish va asosiy biznes yo'nalishiga e'tiborni kuchaytirish imkonini beruvchi strategik qaror sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, amaliyotda bu jarayonning muvaffaqiyati outsorsing xizmatini taqdim etuvchi tashqi firmalarning salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning texnik, tashkiliy, moliyaviy va malakaviy imkoniyatlarini chuqur tahlil etish – qaror qabul qilishning eng muhim shartidir.

O'tkazilgan tahlil asosida outsorsing xizmatlarini baholashning marketing, moliyaviy hamda tashkiliy va kadrlar yo'nalishlari bo'yicha mezonlari ishlab chiqildi (2-jadval).



2-jadval. Outsorsing xizmatlarini baholash mezonlari*

№	Mezon nomi	Qisqacha tavsifi
Marketing		
1	Korxonaning taniqlilik darajasi	Brend obro'si va ijobiy fikrlar soni
2	Mijozlarga individual yondashuv	Buyurtmalarga shaxsiy yondashuv
3	Reklama faoliyati	Xizmatlarni ommaga taqdim etish qobiliyati
4	Rag'batlantirish dasturi	Bonuslar, aksiyalar, sovg'alar
5	Konsultatsiya xizmatlari	Mijoz ehtiyojlariga mos maslahat berish
Moliyaviy		
1	Yuqori darajadagi daromad	Daromad salohiyati va rentabellik
2	Moliyaviy barqarorlik	Uzoq muddatli barqaror faoliyat
3	O'z mablag'lari mavjudligi	Qarzsiz investitsiya imkoniyati
4	Investitsiya faolligi	Sarmoyaviy harakatlar faolligi
5	Qo'shimcha moliya manbalari ehtiyoji	Moliyaviy mustaqillik darajasi
Tashkiliy va kadrlar		
1		Ishchi tartib va mas'uliyat
2		Trening va doimiy rivojlanish
3	Xizmat sifati	Mijozlarning qoniqish darajasi
4	Kadrlar barqarorligi	Xodimlarning ishonch darajasi
5	Innovatsiyalardan foydalanish	Sifat, vaqt va xarajatni optimallashtirish

* Muallif tomonidan o'rganilgan manbalar asosida tuzilgan [4,5,6]

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, outsorsing xizmatlarini baholash mezonlari ko'p qirrali bo'lib, ular xizmat ko'rsatish sifatini, moliyaviy barqarorlikni, tashkiliy salohiyatni hamda innovatsion rivojlanish darajasini bir butun tarzda qamrab oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, outsorsing xizmatlari nafaqat xarajatlarni qisqartirish vositasi, balki korxona boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi kompleks strategiya sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yordamchi funksiyalarni tashqi ixtisoslashgan tashkilotlarga topshirish orqali kompaniya o'zining asosiy tijorat faoliyatiga e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa raqobatbardoshlikni kuchaytirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Muvaffaqiyatli outsorsing loyihasini amalga oshirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Konsultativ-maslahat guruhlarini kengaytirish – ularga nafaqat kompaniya xodimlari, balki ilmiy soha vakillari va tajribali mutaxassislarni ham jalb qilish.

Tashqi hamkorlarni tanlash mezonlarini ishlab chiqish – marketing, moliyaviy, tashkiliy va kadrlar yo'nalishlari bo'yicha aniq indikatorlarga asoslanish.

Risklarni minimallashtirish – xizmat ko'rsatuvchi firmalarning texnik imkoniyatlari, xavfsizlikni ta'minlash darajasi va shartnomaviy intizomini oldindan chuqur baholash.

Monitoring va baholash tizimini joriy etish – outsorsing xizmatlari natijalarini muntazam tahlil qilib borish va zarur hollarda tezkor tuzatishlar kiritish.

Innovatsion yondashuvlarni qo'llash – xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda raqamli texnologiyalar va ilg'or boshqaruv usullaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratish.

Umuman olganda, outsorsing xizmatlarini "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ faoliyatiga joriy etish kompaniyaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Biroq, bu jarayonni samarali tashkil etish tashqi hamkorlarning puxta tanlanishi, tizimli monitoring va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinishiga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аникина Б.А., Родкиной Т.А., Логистика: учеб. пособие / Проспект, 2008. 408 с.
2. Чуркина Л.С. Аутсорсинг бизнес-процессов предприятия // Экономикс. - 2016. -№12 (21).
3. Chase R.B. Ishlab chiqarish va operatsion boshqaruv / M.: "Uilyam" nashriyotidan, 2001.C.46.



4. Винокурцева Е.А. «Теоретические основы применения аутсорсинга в экономике» Московский экономический журнал, по. 5, 2022, pp. 528-534.
5. Евдокимов Н.А. Управление затратами в рамках бизнеспроцессов: автореф. дис. на соискание уч. степени к.э.н. МГТУ «МАМИ», Москва, 2004. С.-14.
6. Дука Б.А. Аутсорсинг: критерии естественного отбора http://devbusiness.ru/development/strategy/outsourcing_alt.htm
7. Шелухин И. Критерии перехода на аутсорсинг промышленных предприятий <http://www.iteam.ru/articles.php?pid=&tid=2&sid=&id=198>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>